SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

RUSTAMOV ALISHER ABDUXAKIMOVICH

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING YOZMA NUTQ KO‘NIKMALARINI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA METODIKASI ORQALI RIVOJLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 37.013.2:373+37.091.3

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy dissertation (PhD) in pedagogical sciences

Rustamov Alisher Abduxakimovich
Yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini pedagogik diagnostika metodikasi orqali rivojlantirish 5

Рустамов Алишер Абдухакимович
Развитие навыков письменной речи старшеклассников посредством методики педагогической диагностики..... 29

Rustamov Alisher Abduhakimovich
Developing High School Students’ Writing Skills through Pedagogical Diagnostic Methodology 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 64

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

RUSTAMOV ALISHER ABDUXAKIMOVICH

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING YOZMA NUTQ KO‘NIKMALARINI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA METODIKASI ORQALI RIVOJLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7138 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rustamova Adash Eshankulovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Axmedova Layloxon Tolibjonovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Davronova Fotima Pirnazarovna pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “22” oktabr soat 9:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (64294-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____”.__oktabr__ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” __oktabr__ dagi №_10_ raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

S.I. Anorqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning yozma nutq savodxonligini oshirish, ularning fikrni mustaqil, mantiqiy va uslubiy jihatdan asoslangan tarzda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ta’lim natijalarini obyektiv o‘lchash pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda diagnostik topshiriqlarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, nutqiy tayyorgarlik darajasi hamda o‘quv ehtiyojlariga mos tanlash, ularni darsning maqsad va mazmuniga integratsiyalash, diagnostika natijalari asosida differensiallashtirilgan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish hamda ularning ta’limiy samaradorligini baholash mexanizmlari yetarli darajada takomillashtirilmaganligi yozma nutqni o‘stirish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini pedagogik diagnostika metodikasi orqali rivojlantirishning didaktik modeli, metodik ta’minoti va diagnostik-baholash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda jahon ilmiy amaliyotida umumiy o‘rta ta’limda yozma nutqni rivojlantirishda pedagogik diagnostikadan foydalanishni takomillashtirish, formativ baholash, o‘quv analitikasi, kognitiv psixolingvistika hamda raqamli diagnostik vositalar asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda diagnostika natijalari asosida yozma nutqning mazmuniy, mantiqiy-kompozitsion, lisoniy va uslubiy komponentlarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish, diagnostik topshiriqlarni differensiallashtirish, adaptiv o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, sun'iy intellekt yordamida yozma ishlarni tahlil qilish hamda o‘quvchilarning nutqiy o‘sish dinamikasini monitoring qilish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida raqamli baholash platformalari, avtomatlashtirilgan matn tahlili tizimlari, generativ sun'iy intellekt hamda shaxsga yo‘naltirilgan adaptiv o‘qitish vositalari asosida pedagogik diagnostika metodikasini takomillashtirish, yozma nutq kompetensiyasini bosqichma-bosqich baholash tizimlarini ishlab chiqish hamda ularning didaktik samaradorligini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. “Bolalarimiz bizdan ko‘ra bilimli, kuchli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart”[1]. Shunga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirishda pedagogik diagnostika metodikasidan didaktik maqsadlarga muvofiq foydalanish tartibini ishlab chiqish, diagnostika natijalari asosida o‘quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning o‘quv faoliyatini faollashtirish, shuningdek, yozma nutq ko‘nikmalari rivojlanishini baholashning

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

diagnostik tizimini takomillashtirish va uni ta’lim amaliyotiga integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal qilishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bilan J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, D.U.Xoshimova, I.M.Tuxtasinov, U.U.Jumanazarov, Sh.Z.Taylanova, A.E.Rustamova, A.Y.Nurmuratov, N.V.Petrosyan, L.T.Abdullayeva, M.U.Buranova, F.P.Davronova, M.E.Pulatova, Sh.Sh.Rustamova, A.B.Musoyeva, N.N.Normatova, U.U.Sattorov, L.F.Xoliqova[2] kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

[2] Бакиева Г., Махкамова Г., Кулдошев А. English 3. – Ташкент, 2007.; Jalolov J.J., Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с.; Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковой взаимодействий: док. дисс. 2007. – 209 б; U.U.Jumanazarov Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish. – Avtoref. dis. … ped. fan. dok. – Toshkent, 2018. – 89 b; I.M.Tuxtasinov Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish.: Avtoref. dis. … ped. fan. dok. – Toshkent, 2018. – 83 b; A.E.Rustamova “Oliy ta’lim muassasalarida chet tilini pedagogik diagnostika metodikasi orqali o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi (ingliz tili misolida)”. Avtoref. dis. … ped. fan. dok. – Toshkent, 2025. – 75 b; Нурмуратов А.Я. Масофавий таълимда инглиз тилини ўқитиш методикаси: PhD дисс. автореф. – Тошкент, 2024.; Абдуллаева Л.Т. Талабаларнинг социолингвистик компетенциясини электрон ресурслар асосида такомиллаштириш (инглиз тили мисолида): PhD дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 59 б.; Buranova M.U. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida talabalarga o‘qishni o‘rgatishda noan’anaviy usullarning joriy qilinishi (ingliz tili materialida): PhD diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 55 b.; Musoyeva A.B. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini CEFR orqali shakllantirish va rivojlantirish (ingliz tili misolida): ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. –Samarqand, 2022- 58b.; Davronova F.P. Raqamli texnologiyalar

Chet tilida yozma nutq va yozuv kompetensiyasini o‘qitish masalalari L.R.Axmetova, F.Sh.Alimov, N.U.Mustafayeva, U.K.Xodjaniyazova, L.V.Kaplich, S.N.Musulbes, O.V.Kudryashova, A.S.Kobisheva, A.N.Gavrilova, J.Xarmer, A.Meyers, R.M.Manchón, P.K.Matsuda, Ch.Polio, P.Kirchhoff, K.Hyland[3] kabi mahalliy va xorij olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

Pedagogik diagnostika, ta’lim natijalarini baholash, diagnostik monitoring hamda formativ baholashning nazariy-metodologik asoslari K.Ingenkamp, B.P.Bitinas, S.K.Kaldibayev, J.G‘.Yo‘ldoshev, A.E.Rustamova, Sh.A.Abdullayeva, D.I.Ro‘ziyeva, N.Voxidova[4] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Blended ta’lim, unga oid ta’lim texnologiyalari va mazkur texnologiyalarning yozuv kompetensiyasini takomillashtirishdagi o‘rni bo‘yicha masalalar G.A.Yusupova, L.G.Babaxodjaeva, Z.K.Kurbaniyazova, N.J.Begibaeva, A.A.Faxrutdinova, M.N.Moxova, Y.I.Kapustin, V.A.Fandey, L.S.Limar, J.Bloch,

---

sharoitida talabalarni ingliz tiliga tezkor o‘qitishning pedagogik asoslarini takomillashtirish: PhD diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 50 b.; M.E.Pulatova “Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innavatsion kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari” 2023-yil 10 mart. 130 sahifa. Sh.Sh.Rustamova “Umumta’lim maktablari yuqori (10-11) sinf o‘quvchilarining tinglab tushunish va so‘zlashuv ko‘nikmasini kommunikativ kompetensiya asosida rivojlantirish”. PhD diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 55 b.; Petrosyan N.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali til yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish: PhD diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 59 b.; Норматова Н.Н. Инглиз тилини ўқитишда иқтисодиёт йўналиши талабаларининг оғзаки нутқ кўникмаларини ривожлантириш: PhD дисс. автореф. – Самарқанд, 2021. – 61 б.; Сатторов У.У. Немис тилини иккинчи чет тили сифатида масофавий ўқитишда янги авлод ўқув адабиётларини такомиллаштириш: PhD дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 61 б..; Xoliqova L.F. Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o‘rganish metodi orqali rivojlantirish: PhD diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 58 b.

[3]Ахметова Л.Р. Преемственность обучения письменной английской речи на продвинутом этапе языкового вуза: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2011. – 25с.; Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида): Пед. фан. фалс. док. … дисс. – Тошкент, 2018. – 136б.; Мустафаева Н.У. Талабаларнинг инглиз тилида ёзма нутқ компетенциясини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш: Пед. фан. фалс. док. … дисс. автореф. – Чирчиқ, 2022. – 28б.; Ходжаниязова У.К. Формирование иноязычной письменной компетенции у учащихся уровня А2 республики Каракалпакстан: Автореф. дис. … док.филос.пед.наук. – Нукус, 2022. – 24с.; Каплич Л.В. Начало обучения продуктивной письменной речи в лингвистическом вузе: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Москва, 1996. – 25с.; Мусульбес С.Н. Обучение аргументирующему дискурсу в сфере письменного общения: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Москва, 2005. – 24с.; Кудряшова О.В. Методика поэтапного формирования коммуникативной компетенции в письменной речи: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2005. – 28с.; Кобышева А.С. Методика обучения письменной речи как компоненту межкультурной компетенции лингвиста-преподавателя: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Ставрополь, 2009. – 26с.; Гаврилова А.Н. Формирование письменноречевой аргументативной компетенции у студентов гуманитарных специальностей: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Санкт-Петербург, 2011. – 26с.; Harmer J. How to teach writing. – London, 2004. – 154p.; Meyers A. Writing with confidence: writing effective sentences and paragraphs (9th ed.). – London, 2008. – 496p.; Manchón R.M., Matsuda P.K. Handbook of second and foreign language writing. – Berlin: De Gruyter Mouton, 2016. – 672p.; Polio Ch. Teaching second language writing. – New York: Routledge, 2017. – 32p.; Kirchhoff P. Productive competences – speaking, writing, mediating. Surkamp C., Viebrock B. (eds) Teaching English as a foreign language. – Stuttgart, 2018. – pp.109-132; Hyland K. Teaching and researching writing (4th ed.). – New York, 2021. – 382p.

[4] Ingenkamp K. Textbook of Pedagogical Diagnostics. 5th Edition.– Weinheim and Basel: Beltz Verlag, 2008. – 312p.; Битинас Б.П. Педагогическая диагностика: сущность, функции и методы. – Вильнюс: Mokslas, 1971. – 184 с.; Kaldibayev S.K. Pedagogik o‘lchovlar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 256 b.; Yo‘ldoshev J.G‘., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika: o‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2014. – 156 b.; Рустамова А.Э. Олий таълим муассасаларида чет тилини педагогик диагностика методикаси орқали ўқитишни такомиллаштириш концепцияси (инглиз тили мисолида): Пед. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2025. – 76 б.; Abdullayeva Sh.A., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 248 b.; Voxidova N., Mirzayeva F. Pedagogik diagnostika: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 320 b.;

C.J.Bonk, C.R.Graham, D.Hinkelman, J.Stein[5] kabi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida muhokama qilingan.

Ammo mavjud tadqiqotlarda aynan pedagogik diagnostikaning yuqori sinfda yozma nutq koʻnikmalarini rivojlantirishdagi metodologik roli, dars bosqichlariga mos integratsiyasi, interaktiv topshiriqlar tizimi yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. Bu holat ushbu tadqiqotning yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy ishlari rejalariga muvofiq "Filologik oliy ta'lim tashkilotlarida chet tilini integrallashuv orqali oʻqitishda kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy yoʻnalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori sinf oʻquvchilarining yozma nutq koʻnikmalarini pedagogik diagnostika metodikasi orqali rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

pedagogik diagnostika tushunchasi va uning nazariy asoslari, ta'limda ulardan samarali foydalanishning mazmun-mohiyatini tahlil qilish;

yuqori sinf oʻquvchilari uchun tashkil etilgan ingliz tili (yozma nutq materiallari) darslarida pedagogik diagnostikaning qoʻllanilish holatini oʻrganish;

yuqori sinf oʻquvchilari uchun tashkil etilgan ingliz tili (yozma nutq materiallari) darslarida pedagogik diagnostikaning mavjud holatidan kelib chiqqan holda pedagogik diagnostikaga asoslangan dars ishlanmalari, topshiriqlar hamda mashqlar tizimini ishlab chiqish;

[5] Юсупова Г.А. Бўлажак педагогларнинг лингвистик компетенцияларини шакллантиришда аралаш таълимдан фойдаланиш методикаси: Пед.фан.фалс.док. … дисс. автореф. – Нукус, 2020. – 25б.; Бабаходжаева Л.Г.Талабаларнинг педагогик компетентлигини ривожлантириш жараёнида аралаш таълим моделини жорий этишнинг назарий ва амалий асослари: Пед.фан.док. … дисс. автореф. – Чирчиқ, 2021. – 16б.; Курбаниязова З.К.Аралаш таълим шароитида бўлажак ўқитувчиларнинг ижтимоий-педагогик компетентлигини ривожлантириш: Пед.фан.док. … дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 27 б.; Бегибаева Н.Ж. Совершенствование письменной речевой компетенции учителей школ с помощью онлайн ресурсов: Автореф. дисс. ... док.филос.пед.наук. – Ташкент, 2022. – 24с.; Faxrutdinova A.A. Oʻzbekistonda ingliz tilini oʻqitishda "Teskari sinf" aralash ta'lim modelining integratsiyasi: Ped.fan.fals.dok. … diss. avtoref. – Chirchiq, 2023. – 28b.; Мохова М.Н. Активные методы в смешанном обучении в системе дополнительного педагогического образования: Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. – Москва, 2005. – 24с.; Abdullayeva L.T. Talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini elektron resurslar asosida takomillashtirish (ingliz tili misolida): Ped. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) ... dis. avtoref. – Samarqand, 2022. – 59 b.; Капустин Ю.И. Педагогические и организационные условия эффективного сочетания очного обучения и применения технологий дистанционного образования: Автореф. дисс. ... док.пед.наук. – Москва, 2007. – 40с.; Фандей В.А. Теоретико-прагматические основы использования формы смешанного обучения иностранному (английскому) языку в языковом вузе: Дисс. ... канд.пед.наук. – Москва, 2012. – 190с.; Лимарь Л.С., Шевцова М.А. Информационные технологии как средство развития письменно-речевых умений // Инновационные технологии обучения иностранному языку в вузе и школе: реализация современных ФГОС: сборник научных трудов по материалам Четвертой Международной научно-практической конференции (С. 395–402). – Воронеж: Издательский дом ВГУ, 2019; Нурмуратов А.Я. Масофавий таълимда инглиз тилини ўқитиш методикаси: Пед. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2024.; Davronova F.P. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarni ingliz tiliga tezkor oʻqitishning pedagogik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) ... dis. avtoref. – Samarqand, 2023. – 50 b.; Bloch J. Technologies in the second language composition classroom. – Ann Arbor, MI: University of Michigan Press, 2008. – 260p.; Bonk C.J., Graham C.R. (Eds.). Handbook of blended learning: Global perspectives, local designs. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006. – 624p.; Hinkelman D. Blending technologies in second language classrooms. – London: Macmillan Publishers, 2018. – 439p.; Stein J., Graham C.R. Essentials for blended learning: A standards-based guide (2nd ed.). – New York: Routledge, 2020. – 214p.

pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va shu asosida taklif etilgan metodikaning samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini pedagogik diagnostika metodikasi orqali rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini pedagogik diagnostika metodikasi orqali rivojlantirishning mazmuni, shakllari va metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “DWOM” (Diagnostic-Driven Writing Optimization Model; Diagnostic – Profile – Adaptation – Reflection) modeli ishlab chiqilib, uning “individual adaptatsiya” komponentida diagnostik profil ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga muvofiq topshiriq murakkabligini bosqichma-bosqich moslashtiruvchi adaptiv-differensial korreksiya mexanizmi dinamik-progressiv tarzda aniqlashtirilgan;

chet tilida yozma nutq kompetensiyasini pedagogik diagnostika vositasida rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizim jahon pedagogik tajribasi tahlili asosida milliy ta’lim muhitiga adaptiv-integrativ tarzda moslashtirilgan holda ishlab chiqilib, uning kognitiv yuklamani muvozanatlashtirish komponentida yozma topshiriqlarni o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga muvofiq differensiallashtirish mexanizmi bosqichli-progressiv tarzda takomillashtirilgan;

yozma faoliyatni “pre-writing diagnostics”, “while-writing monitoring” va “post-writing evaluation” bosqichlari asosida tashkil etishning bosqichli-diagnostik mexanizmi ishlab chiqilib, uning refleksiv tahlil komponentida o‘quvchilarning argumentativ yozuv va tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi sikllik-korreksion tarzda nazariy-amaliy jihatdan dalillangan;

yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik diagnostika ma’lumotlariga tayanuvchi kollaborativ yozma faoliyat mexanizmi differensial-korreksion asosda ishlab chiqilib, uning o‘quvchilarda kommunikativ yozuv strategiyalarini interaktiv-kooperativ tarzda shakllantirishdagi lingvodidaktik samaradorligi tajriba-sinov asosida amaliy isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogik diagnostika asosida tashkil etilgan dars jarayoni o‘quvchilarning yozma nutqdagi individual kamchiliklarini aniqlash va ularni bosqichma-bosqich bartaraf etish imkonini yaratdi. Diagnostik tahlil natijalariga tayangan holda yozuv jarayoni differensial tashkil etilib, o‘quvchilarning grammatik, leksik va stilistik xatolari ustida maqsadli ishlash yo‘lga qo‘yildi. Natijada o‘quvchilarning yozma ishlarida aniqlik, mantiqiylik va mazmuniy yaxlitlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi;

diagnostik vositalar yordamida har bir o‘quvchining yozma nutq darajasi, ehtiyojlari va o‘rganishdagi qiyinchiliklari aniqlanib, ularga mos individual o‘quv strategiyalari ishlab chiqildi. Bu esa kuchli va sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan alohida ishlash imkonini kengaytirib, ta’lim jarayonining individuallashtirilishini ta’minladi. Natijada barcha o‘quvchilar uchun teng rivojlanish sharoiti yaratildi va o‘zlashtirish darajasida ijobiy o‘sish kuzatildi;

pedagogik diagnostika jarayonida o‘quvchilarga o‘z yozma ishlarini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va tuzatish imkoniyati berildi. Bu esa ularning o‘z-o‘zini nazorat qilish, baholash va refleksiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Natijada o‘quvchilar yozuv jarayoniga ongli yondashib, o‘z fikrlarini rejalashtirish, tahrirlash va takomillashtirish ko‘nikmalarini egalladi;

pedagogik diagnostika asosida ishlab chiqilgan mezonlar (rubrikalar) yordamida yozma ishlarni baholash jarayoni aniq va shaffof shaklga keltirildi. O‘quvchilar baholash mezonlarini tushunib, o‘z natijalarini obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali teskari aloqa (feedback)ni ta’minlab, ta’lim sifatining umumiy oshishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mazkur tadqiqot yuqori sinflarda chet tilida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik diagnostikaning nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, Applied Linguistics hamda Language Assessment kesishmasida yozma nutqni baholash va rivojlantirishning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqiladi. Tadqiqotda Diagnostic Assessment va Formative Assessment tamoyillari asosida o‘quvchilarning yozma faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslanadi. Natijada yozma nutq kompetensiyasining tarkibiy komponentlari, rivojlanish bosqichlari va baholash mezonlari aniqlashtirilib, bu sohadagi ilmiy-nazariy qarashlar boyitiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan pedagogik diagnostika modeli yuqori sinflarda chet tilida yozma nutqni o‘qitish amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi. Diagnostik vositalar, baholash mezonlari va differensial topshiriqlar tizimi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali o‘qitishni tashkil etish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarning yozma nutqidagi xatolarni o‘z vaqtida aniqlash va tuzatish, ularning mantiqiy fikrlash, matn tuzish va o‘z fikrini aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishiladi. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun zamonaviy baholash va teskari aloqa mexanizmlarini joriy etish orqali ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini pedagogik diagnostika metodikasi orqali rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “DWOM” (Diagnostic-Driven Writing Optimization Model; Diagnostic – Profile – Adaptation – Reflection) modeli ishlab chiqilib, uning

“individual adaptatsiya” komponentida diagnostik profil ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga muvofiq topshiriq murakkabligini bosqichma-bosqich moslashtiruvchi adaptiv-differensial korreksiya mexanizmi dinamik-progressiv tarzda aniqlashtirilganligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2024-2025-yillar davomida bajarilgan AL-662204339-sonli “Maktab o‘quvchilaridagi iqtidorni va kasbiy qiziqishni onlayn aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik dasturiy ta’minotni yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada qo‘llanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 11-dekabrdagi № 04/11-29627-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik diagnostikaning lingvodidaktik, lingvopsixologik va baholash mezonlarini integrativ yondashuv asosida birlashtirishga erishilgan;

chet tilida yozma nutq kompetensiyasini pedagogik diagnostika vositasida rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizim jahon pedagogik tajribasi tahlili asosida milliy ta’lim muhitiga adaptiv-integrativ tarzda moslashtirilgan holda ishlab chiqilib, uning kognitiv yuklamani muvozanatlashtirish komponentida yozma topshiriqlarni o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga muvofiq differensiallashtirish mexanizmi bosqichli-progressiv tarzda takomillashtirilganligi haqidagi fikr va mulohazalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2024-2025-yillarda amalga oshirilgan IL-7823051524-sonli “Paratranslator: parallel korpusga asoslangan kontekstologik elektron tarjima lug‘at platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 12-dekabrdagi № 04/11-29699-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu fikr va mulohazalar chet tilida yozma nutq kompetensiyasini pedagogik diagnostika vositasida rivojlantirishda jahon pedagogik tajribasini tahlil qilishga xizmat qilmoqda;

yozma faoliyatni “pre-writing diagnostics”, “while-writing monitoring” va “post-writing evaluation” bosqichlari asosida tashkil etishning bosqichli-diagnostik mexanizmi ishlab chiqilib, uning refleksiv tahlil komponentida o‘quvchilarning argumentativ yozuv va tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi sikllik-korreksion tarzda nazariy-amaliy jihatdan dalillanganligi haqidagi xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan RZ-202004165 raqamli “Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” nomli grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 6-apreldagi №04/1-1846-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik diagnostikaga asoslangan metodik tizim takomillashtirilishi isbotlangan;

yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik diagnostika ma’lumotlariga tayanuvchi kollaborativ yozma faoliyat mexanizmi differensial-korreksion asosda ishlab chiqilib, uning o‘quvchilarda kommunikativ yozuv strategiyalarini interaktiv-kooperativ tarzda shakllantirishdagi lingvodidaktik samaradorligi tajriba-sinov asosida amaliy isbotlanganligi haqidagi ma’lumotlardan “Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi” DMda 2025-yil 02-iyun kuni efirga chiqqan “Assalom Samarqand” eshittirishining navbatdagi soni

ssenariyasini tayyorlashda foydalanilgan. Xususan, ingliz tilining yozma nutq koʻnikma va malakalarini pedagogik diagnostika metodikasi orqali yanada rivojlantirish va ulardan darslarda samarali foydalanishni yoʻlga qoʻyish orqali ochib berilgan xulosalar “Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi” DM uchun davlat ta’lim muassasalarining oʻquv-ilmiy faoliyatini takomillashtirish, oʻquvchilarning yozuv koʻnikmasini shakllantirish va monitoring qilishda hamda oʻrta maktab ta’lim sohasida bu yangilikni tatbiq etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ma’lum darajada manba boʻlib xizmat qiladi (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2026-yil 9-iyundagi 01-07/213-son ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori sinf oʻquvchilarida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani optimallashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati, hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 161 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning Oʻzbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari oʻz aksini topgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida yuqori sinflarda ingliz tilini oʻqitishda pedagogik diagnostikadan foydalanishning lingvopsixologik va lingvodidaktik asoslari, pedagogik diagnostika va uning ingliz tilini oʻqitishdagi ahamiyati, undan foydalanishda yuzaga keladigan muammolar va kamchiliklar, shuningdek, ularni qoʻllashdagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Zamonaviy dunyo hamjamiyatida kechayotgan jadal globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida chet tillarini oʻrganish va oʻqitish masalasi ta’lim tizimining eng muhim ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda dunyo miqyosidagi barcha sohalarda - xoh u siyosat, iqtisodiyot, madaniyat yoki fan-texnika boʻlsin - oʻz fikrini nafaqat ogʻzaki, balki yozma ravishda ham erkin, ravon hamda savodli bayon qila oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalash ta’lim tizimidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Oʻrta maktabda, xususan yuqori sinflarda chet tili muloqot vazifasini bajaradi va chuqur ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻladi. Amaliy maqsadga

erishish - ya’ni tilni muloqot vositasi sifatida egallash - o‘z navbatida, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishga mustahkam zamin yaratadi. Biz axborot asrida yashayotganimiz sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet kommunikatsiyasi shiddat bilan rivojlanmoqda, bu esa ingliz tilini bilishni zamon talabiga aylantirmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili xalqaro til va globallashuvning kuchayishi bilan *lingua franca* maqomini egalladi. Ingliz tilining xalqaro miqyosda bunday keng tarqalishiga fan, texnologiya, tijorat sohalarida asosiy muloqot tili sifatida qo‘llanilishi, boshqa tillardan lug‘at qabul qila olish moslashuvchanligi va turli dialektlarining bag‘rikenglik bilan qabul qilinishi kabi omillar kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Shu nuqtayi nazardan, chet til o‘qitishning zamonaviy modeli tizimli-faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan va kommunikativ-kognitiv yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu modelning ustuvor vazifasi o‘rganuvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Kommunikativ kompetensiya murakkab tuzilma bo‘lib, u lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kabi bir nechta kichik guruhlardan iborat bo‘ladi. Bu jarayon ta’lim, madaniyat va shaxs rivojlanishining uzviy birligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Chet til o‘qitishning umumiy ta’lim tizimidagi majburiy kursi metodik jihatdan turli bosqichlarga bo‘linadi. Yuqori sinf ta’lim bosqichi akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-11-sinflarini o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda maktabdagi chet til o‘qitish kursi yakunlanadi, shuning uchun o‘quvchilarning nutq malakalariga qo‘yilgan yakuniy maqsadlar to‘liq amalga oshirilishi shart. Yuqori sinf o‘quvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida gapirilganda, dastlab yuqori sinf o‘quvchilari, ya’ni o‘smirlikdan yoshlik davriga o‘tayotgan shaxslar uchun ta’lim jarayonida o‘ziga xos psixologik xususiyatlar namoyon bo‘lishini ta’kidlash o‘rinli: 1) Yuqori sinf o‘quvchilari uchun purmazmunli matnlarni o‘qish birlamchi vazifaga aylanadi. Bu davrda nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo‘ladi, chunki ular atrof-olamdagi voqea-hodisalar va bog‘lanishlar mazmunini yuqori darajada, falsafiy va mantiqiy jihatdan tushunishga harakat qiladilar. 2) Ular mustaqillik, o‘ziga xoslik, do‘stlik va o‘rtoqlik bilan bog‘liq shaxsiy xislatlarni yuqori baholashadi. Bu yozma nutqda o‘z “men”ini ifodalash istagini kuchaytiradi. 3) Yuqori sinf o‘quvchilari yozma nutqni rivojlantirishda ham ijodiy faoliyatga kirishish ehtiyoji va intilishi bilan ajralib turadi. O‘smirlik davrida o‘qish va yozma monologik nutq jadal rivojlanadi. Bu bosqichda o‘quvchilar berilgan erkin mavzu bo‘yicha mustaqil insho yoza oladilar. 4) Ular uchun o‘rganishga qiziqishda sifat jihatidan progress sodir bo‘ladi, ularning yozma nutqi esa to‘la tafakkur bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Yuqori bosqichda chet til o‘qitishning amaliy maqsadi o‘zgaradi. Agar dastlabki bosqichlarda gapirish asosiy amaliy maqsad bo‘lgan bo‘lsa, yuqori bosqichda, ya’ni 5-9-sinflarning oxiriga kelib, o‘qish malakasi amaliy maqsad darajasiga chiqa boshlaydi. Yozma matndan qiziqarli va foydali axborot olishga e’tibor oshadi. O‘qish va tinglab tushunish amaliy maqsad maqomida o‘rgatiladi, ammo yuqori sinflarda yozuv nutq faoliyati turi sifatida barcha sinflarda chet til o‘rgatish vositasi bo‘lib keladi. An’anaviy metodikada yozuv amaliy maqsad emas, balki til materialini puxta o‘zlashtirish, og‘zaki nutq va o‘qish malakalarini o‘stirish hamda o‘quv materialining o‘zlashtirish darajasini tekshirish vositasi sifatida

namoyon bo‘lgan. Biroq, zamonaviy kommunikativ-kognitiv yondashuv va kompetensiyaviy yondashuv talablariga binoan, yozma nutq faqatgina vosita emas, balki kreativ yozma nutq shakllari sifatida o‘qitiladi. Yozma nutq deganda, fikrni yozma shaklda bayon etish, ya’ni o‘z fikrini yozish va yozma matn yaratish tushuniladi. Yuqori sinflarda kichik-kichik insholar, bayon, hikoya, tasvir, xat yozish mashq qilinadi. Bu o‘quvchilardan nafaqat til qoidalarini bilishni, balki fikrni mantiqiy tashkil etishni ham talab qiladi.

Yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik va nazariy asoslari haqida gapirilganda, olimlarning quyidagi fikrlariga tayaniladi: amerikalik tilshunos M.Rivers savodli bo‘lishni “o‘qish va yozuvni bilish” deb ta’riflagan. Rus olimasi I.A.Zimnyaya yozma nutqni “tuzilmasi va funksional tashkil etilishi jihatidan murakkab bo‘lgan aqliy faoliyat” sifatida baholaydi. Ken Hyland ta’kidlaganidek: “Yozishni o‘rgatish – bu o‘quvchilarga o‘z fikrlarini aniq va ishonchli ifodalash uchun zarur bo‘lgan lingvistik va ritorik vositalarni taqdim etishdir”. Bu ta’riflar yozuvning shunchaki og‘zaki nutqning grafik ifodasi emasligini, balki o‘ziga xos qonuniyatlarga ega bo‘lgan mustaqil kommunikativ jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Zamonaviy lingvodidaktikada yozuv kompetensiyasini shakllantirishda yondashuvlar turlicha bo‘lib, ularni uch asosiy guruhga ajratish mumkin. Bu yondashuvlar yuqori sinflarda o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi: 1) Yakuniy natijaga asoslangan yondashuv: ushbu an’anaviy yondashuvda asosiy e’tibor yakuniy natijaga, ya’ni grammatik va orfografik jihatdan to‘g‘ri matn yaratishga qaratiladi. O‘quvchilar namunaviy matnlarni tahlil qiladilar va ularga taqlid qilgan holda o‘z matnlarini yaratadilar. Bu yondashuv til qoidalarini mustahkamlashda foydali bo‘lsada, o‘quvchining ijodiy jarayoniga yetarlicha e’tibor bermaydi. 2) Jarayonga asoslangan yondashuv: bu yondashuv yozishni bir lahzalik harakat emas, balki bosqichma-bosqich jarayon sifatida qaraydi. U quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: rejalashtirish (pre-writing), qoralama yozish (drafting), tahrirlash (editing) va qayta ishlash (revising). Bu yondashuv o‘quvchilarga o‘z fikrlarini rivojlantirish va matnni takomillashtirish imkonini beradi. 3) Janrga asoslangan yondashuv: bu yondashuv matnning kommunikativ maqsadi va ijtimoiy kontekstini inobatga olgan holda turli janrlar xususiyatlarini o‘rgatishga asoslanadi. Janrga asoslangan yondashuv o‘qituvchiga yozma nutqda o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan zaruriy jihatlarni aniqlashga va samarali matn mezonlarini qo‘llashga yordam beradi. Bunda matnlarni dekonstruksiya qilish va janrni tahlil qilish kabi metodlar qo‘llaniladi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasining global miqyosda o‘zgarishi, xususan, bilimga yo‘naltirilgan yondashuvdan kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish jarayoni o‘quvchi shaxsini rivojlantirish mexanizmlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda[6]. Ushbu transformatsion jarayonning o‘zagida pedagogik diagnostika turibdi, chunki aynan u ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi, o‘quvchi ehtiyojlarini aniqlovchi va ta’lim sifatini boshqarishga imkon beruvchi fundamental vosita hisoblanadi[7]. Chet tillarni o‘qitish metodikasida,

[6] Yo‘ldoshev J. G‘., Shirinov M. K., Ochilov F. I. Pedagogik diagnostika: o‘quv-metodik qo‘llanma. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2014. – 5-b.

[7] Abdullayeva Sh. A., Ro‘ziyeva D. I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 46-b.

ayniqsa, murakkab kognitiv faoliyat turi sanalgan yozma nutq koʻnikmalarini shakllantirishda diagnostik yondashuvning oʻrni beqiyosdir[8]. Yozma nutq nafaqat lingvistik bilimlarni, balki mantiqiy fikrlash, rejalashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini ham talab etishi bois, uning diagnostikasi koʻp qirrali va tizimli boʻlishi shart[9]. "Diagnostika" tushunchasining etimologik ildizlari qadimgi yunon madaniyatiga borib taqaladi. Yunoncha "diagnostikos" – "bilishga qodir", "taniy olish" maʼnolarini anglatib, dastlab tibbiyot sohasida kasallik belgilari orqali xastalik mohiyatini aniqlash maʼnosida qoʻllanilgan[10]. Gippokrat tomonidan asos solingan tibbiy diagnostika tamoyillari – kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish – keyinchalik ijtimoiy-gumanitar fanlarga, xususan, psixologiya va pedagogikaga transfer qilindi[11]. Pedagogik diagnostika tarixidagi eng muhim burilish nuqtasi XX asrning 60-yillari, xususan, 1968-yil hisoblanadi. Nemis olimi Karlxayns Ingenkamp birinchi boʻlib "pedagogik diagnostika" atamasini ilmiy muomalaga kiritdi va uning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqdi[12]. Ingenkamp oʻsha paytda hukmron boʻlgan sof psixologik diagnostikadan farqli oʻlaroq, pedagogik diagnostikaning maqsadi oʻquvchini saralash emas, balki uning oʻquv jarayonidagi rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash ekanligini taʼkidladi[13]. Uning 1968-yilda ilgari surgan konseptual yondashuviga koʻra, pedagogik diagnostika – bu oʻquvchining individual imkoniyatlari va oʻquv jarayoni shart-sharoitlari oʻrtasidagi mutanosiblikni taʼminlashga qaratilgan faoliyatdir[14]. Ingenkamp boʻyicha diagnostika quyidagi uch asosiy komponentni oʻz ichiga oladi[15]:

Oʻquvchining oʻzlashtirish darajasini aniqlash: bilim va koʻnikmalarni obyektiv baholash.

Oʻquv jarayonidagi qiyinchiliklarning sabablarini tahlil qilish: nima uchun oʻquvchi oʻzlashtira olmayapti?

Taʼlim natijalarini optimallashtirish boʻyicha pedagogik qarorlar qabul qilish: oʻqitish metodlarini moslashtirish va individual yondashuvni qoʻllash[16].

Ingenkampning yondashuvi Yevropa pedagogikasida "oʻqitish uchun baholash" konsepsiyasining rivojlanishiga turtki berdi va diagnostikaning funksiyasini nazoratdan yordamga oʻzgartirdi[17]. Tadqiqotchi Kaldibayev, B.P.Bitinas va boshqa olimlarning yondashuvlarini umumlashtirgan holda, pedagogik diagnostikaning toʻqqizta asosiy funksiyasini ajratib koʻrsatish

[8] Voxidova N., Mirzayeva F. Pedagogik diagnostika: Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 9-b.
[9] Raxmatova X. A. Pedagogik diagnostika: Maʼruza matnlari. Namangan: NamDU nashriyoti, 2014. – 21-b.
[10] Teshaboev A. Y. va boshq. Pedagogical Diagnostics of the Quality of Organization of the Educational Process. scientists.uz, 2022. Page 2
[11] Yoʻldoshev J.Gʻ., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika. Oʻquv-metodik qoʻllanma. – Toshkent, 2014. -5bet
[12]Ingenkamp, K. Textbook of Pedagogical Diagnostics. 5th Edition. Weinheim and Basel: Beltz Verlag, 2008.–P.23.
[13] Ingenkamp K. Educational Diagnostics. In: Encyclopedia of Educational Science. Vol. 2. Stuttgart: Klett-Cotta, 1984. – p. 98.
[14] Ingenkamp K. Textbook of Educational Diagnostics. 5th edition. Weinheim and Basel: Beltz Publishing, 2008. – p. 31.
[15] Ingenkamp K. Textbook of Educational Diagnostics. 5th edition. Weinheim and Basel: Beltz Publishing, 2008. – p. 27.
[16] Ingenkamp K. Textbook of Educational Diagnostics. 5th edition. Weinheim and Basel: Beltz Verlag, 2008. – pp. 42-44.
[17] Abdullayeva Sh. A., Roʻziyeva D. I. Pedagogik diagnostika va korreksiya: Darslik. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2018. – 46-b.

mumkin[18]. Bu funksiyalar diagnostikaning ta’lim jarayonidagi o‘rnini to‘liq ochib beradi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Pedagogik diagnostikaning funksiyalari va ularning tavsifi

№	Funksiya nomi	Mohiyati va pedagogik ahamiyati
1	**Teskari aloqa funksiyasi**	Bu eng muhim funksiya bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlaydi. O‘qituvchi o‘z metodlarining samarasi haqida, o‘quvchi esa o‘z yutuqlari va kamchiliklari haqida ma’lumot oladi[19].
2	**Maqsad va vazifalarni belgilash funksiyasi**	Diagnostika natijalari asosida ta’limning keyingi bosqich maqsadlari aniqlashtiriladi va rejalashtiriladi[20].
3	**Bashoratlash**	O‘quvchining hozirgi rivojlanish dinamikasiga asoslanib, uning kelajakdagi natijalarini va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra bilish[21].
4	**Taqsimot funksiyasi**	O‘quvchilarni bilim darajasi, qiziqishlari va qobiliyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratish yoki tabaqalashtirilgan topshiriqlar berish. Resurslarni to‘g‘ri taqsimlash[22].
5	**Korreksiyalash funksiyasi**	Aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish va xatolarni tuzatish uchun o‘quv jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish. Bu funksiya "noto‘g‘ri tashxis" xavfini kamaytiradi.
6	**Nazorat funksiyasi**	O‘quv jarayoni natijalarini davlat ta’lim standartlari talablari asosida tekshirish va baholash.
7	**Motivatsiya va rag‘batlantirish funksiyasi**	Obyektiv baholash va o‘z vaqtida ko‘rsatilgan yordam o‘quvchining o‘z kuchiga ishonchini oshiradi va o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.
8	**Yaratish funksiyasi**	Yangi pedagogik g‘oyalar va metodlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Diagnostika natijalari innovatsiyaga undaydi.
9	**Tahliliy funksiyasi**	Pedagogik tajribani o‘rganish, umumlashtirish va ta’lim natijalari o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini chuqur tahlil qilish.

Ushbu funksiyalar kompleks ravishda amalga oshirilganda, diagnostika o‘quv jarayonining ajralmas va harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Yozma nutq chet tilini egallashning eng murakkab turlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat lingvistik bilimlarni, balki g‘oyalarni rejalashtirish, strukturaga solish va tahrir qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni talab qiladi. Yozma nutq diagnostikasining psixologik asoslarini tushunishda Hayes va Flower tomonidan yaratilgan model fundamental ahamiyatga ega. Ushbu modelga ko‘ra, yozish jarayoni uchta asosiy kognitiv bosqichdan iborat bo‘lib, diagnostika har bir bosqichda alohida olib

[18] Kaldibayev, S. K. Pedagogik o‘lchovlar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 45-b.
[19] Voxidova N., Mirzayeva F. Pedagogik diagnostika: Darslik. Toshkent. 2022. 9bet
[20] Voxidova N., Mirzayeva F. (2022). Pedagogik diagnostika: Darslik. Toshkent. 10bet
[21] Raxmatova X.A. (2014). Pedagogik diagnostika: Ma’ruza matnlari. Namangan: Namangan DU. 21bet
[22] Choriyeva D.A. Maktabgacha ta'limda pedagogik diagnostika. – T.: 2022. 44bet

borilishi kerak: *Rejalashtirish:* maqsad qo‘yish, g‘oyalarni generatsiya qilish va tashkillashtirish. Diagnostika bu bosqichda o‘quvchining “fikr yo‘qligi” muammosini aniqlaydi. *Matnga aylantirish:* ichki g‘oyalarni lingvistik shaklga-matnga o‘tkazish. Bu yerda so‘z boyligi va grammatik strukturalarni qo‘llashdagi qiyinchiliklar tashxis qilinadi. *Qayta ko‘rib chiqish:* yozilgan matnni o‘qish va tahrir qilish. Diagnostika o‘quvchining o‘z xatolarini ko‘ra olish qobiliyatini baholaydi.


Hayes keyinchalik ushbu modelni takomillashtirib, unga affektiv omillar (motivatsiya, havotir) va ishchi xotira hajmini ham kiritdi, bu esa diagnostika ko‘lamini yanada kengaytirdi. Karl Bereiter va Marlen Skardamaliya yozuvni tahrir qilish jarayonini diagnostika qilish uchun *CDO (Compare, Diagnose,* Operate) modelini taklif qildilar: Compare: yozilgan matnni o‘zidagi ideal tasavvur bilan solishtiradi; Diagnose: nomutanosiblik sababini aniqlaydi; Operate: matnni o‘zgartiradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik diagnostika o‘quvchilarning chet tilidagi yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning strategik resursi hisoblanadi. Uning to‘g‘ri tashkil etilishi ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim kafolatidir. Zamonaviy lingvodidaktika va pedagogikada chet tilini o‘qitish samaradorligini oshirish, xususan, yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyalarini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish innovatsion boshqaruv mexanizmlarini talab etadi. An’anaviy ta’lim tizimida keng qo‘llanilib kelingan “o‘qitish-nazorat qilish-baholash” zanjiri bugungi kun talablariga to‘liq javob bera olmaydi, chunki u faqatgina yakuniy natijani miqdoriy jihatdan qayd etish bilangina cheklanadi. Shu o‘rinda pedagogik diagnostika shunchaki nazorat vositasi emas, balki ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quvchining shaxsiy va lisoniy rivojlanish traektoriyasini belgilash, hamda ta’lim mazmunini o‘zlashtirishdagi to‘siqlarni aniqlab, ularni o‘z vaqtida bartaraf etishga xizmat qiluvchi tizimli jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqori sinf o‘quvchilarining chet tildagi yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda mavjud metodologik yondashuvlarning yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi va amaliyotda diagnostika usullarining tizimli qo‘llanilmasligi ushbu tadqiqotda yangi metodik modelni ishlab chiqishni zarur qilib qo‘ydi. Xususan, darslik tahlillari shuni ko‘rsatdiki, amaldagi o‘quv materiallari o‘quvchilardagi lingvistik bo‘shliqlarni aniq belgilay olish va ularga individual yondashuv asosida korreksion ta’lim ko‘rsatish imkoniyatini yetarli darajada ta’minlamaydi. Ana shu zaruratdan kelib chiqib, muallif tomonidan “Diagnostic-Driven Writing Optimization Model” (DWOM) deb ataluvchi nazariy-metodologik model ishlab chiqildi va tajriba-sinov darslari orqali amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. DWOM modeli yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik diagnostikaning lingvodidaktik, lingvopsixologik va baholash mezonlarini integrativ yondashuv asosida birlashtirgan nazariy-metodologik tizimdir. Mazkur model K.Ingenkampning pedagogik diagnostika nazariyasi, L.S.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasi, Hayes va Flower tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yozish jarayoni modeli, hamda CEFR standartlaridagi formativ baholash tamoyillariga tayanadi. Shu bilan birga, model J.J.Jalolovning chet tilini o‘qitishda “til tajribasini hisobga olish” prinsipi bilan

uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, o‘zbek o‘quvchilarining ona tili interferensiyasini diagnostika qilish va uni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratadi. Modelning asosiy maqsadi o‘quvchining yozma nutq kompetensiyasidagi aniq bo‘shliqlarni ilmiy asosda aniqlash, ularni tasniflab, moslashtirilgan pedagogik ta’sir choralarini belgilash va ta’lim jarayonida uzluksiz monitoring tashkil etish orqali har bir o‘quvchi uchun individual rivojlanish trayektoriyasini kafolatlashdan iborat. Model shunchaki baholash vositasi emas, u o‘quv jarayonini loyihalash, differensial ta’lim strategiyalarini tanlash va korreksion ishlarni maqsadli amalga oshirishning bir butun tizimini tashkil etadi.

DWOM modeli to‘rtta o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat bo‘lib, ular izchil va siklik tarzda amalga oshiriladi. Har bir bosqich oldingi bosqich natijalariga tayanadi va keyingi bosqich uchun zamin hozirlaydi. Modelning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: I bosqich - Diagnostik tahlil (Pre-writing Diagnostics). Modelning birinchi bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarning yozma nutq kompetensiyasi haqida to‘liq dastlabki ma’lumot to‘playdi. Bu bosqich diagnostik testlar, kuzatishlar va qisqacha yozma ishlar yordamida amalga oshiriladi. Asosiy e’tibor grammatik, leksik va diskursiv xatolarni aniqlashga, shuningdek, ona tili interferensiyasi qaysi sohalarda ko‘proq namoyon bo‘lishini belgilashga qaratiladi. Diagnostika natijalari asosida har bir o‘quvchi uchun yozma nutq profili – ya’ni uning kuchli tomonlari va rivojlanishga muhtoj sohalari – rasmiy ravishda belgilanadi. II bosqich - Diagnostik profil (Diagnostic Profiling). Ikkinchi bosqichda birinchi bosqichda to‘plangan diagnostik ma’lumotlar tahlil qilinib, har bir o‘quvchi uchun moslashtirilgan o‘quv trayektoriyasi belgilanadi. O‘quvchilar o‘zlarining diagnostik profillariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi: yuqori darajadagi o‘quvchilar uchun murakkab akademik yozuv vazifalari, o‘rta darajali o‘quvchilar uchun tuzilishga oid mashqlar, past darajali o‘quvchilar uchun esa interferensiyani bartaraf etishga qaratilgan remediatsion (tuzatuvchi) topshiriqlar rejalashtiriladi. Bu bosqich ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan asosda tashkil etishning bevosita metodologik zaminini yaratadi. III bosqich - Individual adaptatsiya-While-writing Monitoring- modelning amaliy markazini tashkil etadi. Bu bosqichda o‘quvchilar yozish jarayonida faol bo‘ladilar, o‘qituvchi esa formativ diagnostika orqali jarayonni kuzatib boradi. Communicative alignment tamoyili asosida topshiriqlar real kommunikativ maqsadlarga- xat yozish, insho, hisobot, diskursiv tahlil yo‘naltirilgan bo‘lib, cognitive activation prinsip orqali o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga undanadigan muammoli vaziyatlarga duch keladilar. Kollaborativ yozma faoliyatlar o‘quvchilarda ijtimoiy kommunikativ ko‘nikmalar shakllanishiga xizmat qiladi. O‘qituvchining konstruktiv va harakatga undovchi teskari aloqasi shu bosqichda eng muhim diagnostik vosita sifatida qo‘llaniladi. IV bosqich - Reflektiv integratsiya- Post-writing Evaluation- yozma ishlarning yakuniy sifati baholanib, o‘quvchining birinchi bosqichdagi holati bilan solishtiriladi. Reflective analysis usuli yordamida o‘quvchilar o‘z yozma ishlarini mustaqil tahlil qilishga, xatolarni ongli ravishda aniqlashga va kelajakdagi yozuv strategiyalarini mustaqil belgilashga o‘rgatiladi. Portfolio asosida rivojlanish dinamikasi kuzatiladi. CEFR B1/B2 mezonlariga muvofiq summativ baholash amalga oshirilib, modelning samaradorligi o‘lchanadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Yozma nutqni diagnostik-adaptiv rivojlantirish modeli (DWOM)

DWOM modelining amaliy ahamiyati shundan iboratki, u o‘qituvchiga yozma nutqni o‘qitishda har bir pedagogik qarorni aniq diagnostik ma’lumotlarga asoslantirish imkonini beradi. Samarqand, Jizzax va Qarshi shaharlaridagi maktablarda olib borilgan tajriba-sinov ishlari shuni tasdiqladiki, DWOM modeliga asoslangan darslarda qatnashgan tajriba guruhidagi o‘quvchilarning yozma nutq ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Bu natija modelning nafaqat nazariy asoslanganligini, balki amaliy jihatdan ham samaradorligini ishonchli tarzda tasdiqlaydi. Shuningdek, model o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini – xususan, diagnostik va korreksion faoliyat sohasidagi mahoratini – oshirishga ham bevosita yordam beradi, chunki mazkur yondashuv o‘qituvchini doimiy kuzatuv, tahlil va pedagogik qarorlar qabul qilish jarayoniga faol jalb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida mashqlar tizimi taklif etilgan bo‘lib, ularning mazmuni quyida keltirilgan. Tadqiqot davomida quyidagi mashq tizimlari taklif etilib, amaliy dars jarayoniga integratsiya qilindi: *“Blank Page Syndrome”*ni yengish va “Mind Mapping”: o‘quvchi nima haqida yozishni bilmasa, unga qalamni olib darhol gap tuzish taqiqlanadi[23]. Dastlab 5 daqiqa davomida “Mind Mapping” yoki “Brainstorming” texnikasi o‘rgatiladi. Mavzu markazga yozilib, atrofida sabablar, oqibatlar va hayotiy misollar aniqlanib chiqiladi. O‘qituvchi o‘quvchining qoralamasini diagnostika qilib, faqat eng kuchli 2 ta dalilni inshoga kiritish uchun tanlab beradi. *“Thesis Statement”* yaratish siri: o‘quvchiga har qanday akademik inshoning 1-xatboshi “Introduction” oxirida inshoning butun mohiyati va muallifning aniq pozitsiyasini ochiqlovchi 1 ta kuchli gap yozish qat’iy shartligi uqtiriladi. O‘qituvchi 10 ta turli mavzularini beradi va o‘quvchidan butun insho yozishni emas, balki faqatgina har bir mavzuga mos “Thesis Statement” yozishni talab qiladi, masalan “This essay will argue that while technology improves convenience, its detrimental effects on human interaction outweigh the benefits”. *Abzaslar arxitekturasi – “PEEL” yoki “TEEL” metodi*: o‘quvchi har bir asosiy abzasni qat’iy tartibda, ilmiy mantiqqa tayangan holda yozishi kerakligini tushunishi shart. O‘qituvchi TEEL formulasini joriy qiladi: **T-Topic sentence:** abzas nima haqidaligini bildiruvchi ilk gap. **E-Explanation:** bu fikr nima uchun to‘g‘riligini izohlash. **E-Evidence/Example:** hayotiy yoki ilmiy misol keltirish (*For instance, a recent study showed that...*). **L-Link:** abzasni xulosa qilib, asosiy insho mavzusiga qayta bog‘lash[24]. Shu sxemaga tushmagan, fikrlari tarqoq insholar formativ baholash jarayonida baholanmaydi, balki N.E.Pateeva ta’kidlagan “subyekt-subyekt” innovatsion diagnostikasi asosida o‘quvchining o‘ziga qayta tahrir qilish uchun qaytariladi.

Yozish ko‘nikmalarining o‘zlashtirilish darajasini aniqlash uchun quyidagi baholash mezonlari ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang):

[23] Buzan, T. (1993). “The Mind Map Book: How to Use Radiant Thinking to Maximize Your Brain’s Untapped Potential”. London: BBC Books, p. 84.
[24] Godwin, J. (2019). “Planning Your Essay” (3rd ed.). Basingstoke: Palgrave Macmillan, p. 67.

2-jadval

Baholash mezonlari

№	Daraja CEFR / IELTS	Mazmun	Tuzilma	Leksik boyligi	Grammatika	Kommunikativlik
5	**B2–C1 / 7.0–8.0**	Mavzu chuqur ochilgan, tanqidiy va ijodiy fikrlar mavjud, dalillar bilan asoslangan	Kirish–asosiy qism–xulosa mukammal, mantiqiy izchillik yuqori	Boy leksik zahira, terminlar o‘rinli va aniq qo‘llangan	Deyarli xatosiz, murakkab grammatik strukturalar ishlatilgan	Vazifa to‘liq bajarilgan, maqsadga to‘liq erishilgan
4	**B1+–B2 / 6.0–6.5**	Mavzu yetarli ochilgan, asosiy fikrlar mavjud	Tuzilma mavjud, lekin ayrim mantiqiy uzilishlar bor	Yetarli leksik zahira, ba’zi takrorlar mavjud	Xatolar bor, lekin mazmunga katta ta’sir qilmaydi	Vazifa asosan bajarilgan
3	**A2+–B1 / 5.0–5.5**	Mavzu yuzaki ochilgan, fikrlar sodda	Tuzilma qisman saqlangan, izchillik zaif	Leksik zahira cheklangan, takrorlar ko‘p	Ko‘p xatolar bor, ba’zan tushunishni qiyinlashtiradi	Vazifa qisman bajarilgan
2	**A1–A2 / 4.0↓**	Mavzu ochilmagan yoki noto‘g‘ri yoritilgan	Tuzilma yo‘q yoki mantiqsiz	Juda kam leksik zahira	Juda ko‘p xatolar, tushunarsiz	Vazifa bajarilmagan

Dissertatsiyaning uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi va natijalari tahlili keltirilgan. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun Samarqand, Jizzax va Qarshi shaharlarining tanlanishi o‘ziga xos ilmiy va demografik asoslarga ega. Tadqiqotning ishonchliligi hamda uning natijalarini butun respublika ta’lim tizimi uchun umumlashtirish imkoniyatini oshirish maqsadida geografik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’ati, hamda ta’lim infratuzilmasi jihatidan o‘zaro farqlanuvchi, ammo xorijiy tillarni o‘qitishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoji birdek yuqori bo‘lgan hududlar tanlab olindi (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Tajriba-sinov maydonlari va ishtirokchilari

Hudud nomi	Ta’lim muassasasi (Maktab / IDUM)	Tajriba guruhi (o‘quvchilar soni)	Nazorat guruhi (o‘quvchilar soni)	Tajribada ishtirok etgan jami o‘quvchilar	Darsga jalb qilingan o‘qituvchilar soni
Samarqand shahri	24-Ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	32	30	62	4
	36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	28	29	57	3
Jizzax shahri	6-Ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	30	31	61	4
	22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	25	26	51	3
Qarshi shahri	1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	29	28	57	3
	15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	31	30	61	4
Jami ko‘rsatkichlar	**6 ta ta’lim muassasasi**	**175 nafar o‘quvchi**	**174 nafar o‘quvchi**	**349 nafar o‘quvchi**	**21 nafar o‘qituvchi**

Ushbu mezonlarning har biri diagnostika jarayonida qanday amal qilishini va o‘quvchilarda qanday tipik qiyinchiliklarni yuzaga chiqarganligini quyidagi jadvalda aniq tasvirlab berishni lozim topdik (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Pedagogik diagnostika asosida o‘quvchilarning kognitiv va lingvistik qiyinchiliklari

Diagnostik Mezonlar	Diagnostika qilinadigan obyekt va ko‘nikmalar	O‘quvchilarda amaliyotda aniqlangan tipik kognitiv va lingvistik qiyinchiliklar
Vazifaga javob va mazmun	Mavzuni anglash va to‘g‘ri shakllantirish, mustaqil dalillar keltirish	Mavzudan tezda chetlashib ketish, fikrni aniq dalillar bilan isbotlash o‘rniga umumiy, yuzaki gaplardan foydalanish. Mantiqiy xulosaning yetishmasligi.
Uyg‘unlik va izchillik	Paragrafning ichki tuzilishi: mavzu jumlasi, qo‘llab-quvvatlovchi va yakunlovchi jumlalar bog‘liqligi	G‘oyalar o‘rtasida mantiqiy buzilishlarning mavjudligi. *However, therefore, moreover* kabi bog‘lovchilarni o‘rnini his qilmasdan, shunchaki mexanik tarzda ortiqcha ishlatish.
Leksik manba	Akademik terminologiya, sinonim, kontekstual moslik	Ona tilidagi so‘z birikmalarini ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kalkalab, tarjima qilib o‘tkazish. Cheklangan va takrorlanuvchi lug‘at boyligi.
Grammatik diapazon	Gaplarning sintaktik xilma-xilligi, morfologik to‘g‘rilik, moslashuv	Murakkab fikrlarni faqat sodda gaplar orqali ifodalash. O‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan grammatik hodisalarda muntazam adashishlar.
Mexanika	Tinish belgilari, ingliz tili orfografiyasi, matn vizual estetikasi	Gaplarni nuqta bilan tugatmasdan faqat vergul bilan bog‘lab ketish, ingliz tilining murakkab o‘qilish-yozilish qonuniyatlari tufayli imlo xatolari.

“Blank Page Syndrome” ni yengish va “Mind Mapping” mashq turi bo‘yicha tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarni ko‘rishingiz mumkin (5-6-jadvallarga qarang):

5-jadval

“Blank Page Syndrome”ni yengish va “Mind Mapping” turi bo‘yicha dastlabki test natijalari

Samarqand shahri 24-maktab				
Guruhlar	**O‘quvchilar soni**	**O‘zlashtirish darajalari**		
		Yuqori	**O‘rta**	**Past**
Tajriba Guruhi	32	5	15	12
Nazorat guruhi	30	4	16	10
Samarqand shahri 36-maktab				
Guruhlar	**O‘quvchilar soni**	**O‘zlashtirish darajalari**		
		Yuqori	**O‘rta**	**Past**
Tajriba Guruhi	28	4	16	8
Nazorat guruhi	29	6	14	9
Jizzax shahri 6-maktab				
Guruhlar	**O‘quvchilar soni**	**O‘zlashtirish darajalari**		
		Yuqori	**O‘rta**	**Past**
Tajriba Guruhi	30	5	15	10
Nazorat guruhi	31	4	16	11

Jizzax shahri 22-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	25	4	10	11
Nazorat guruhi	26	5	9	12
Qarshi shahar 1-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	29	6	9	14
Nazorat guruhi	28	5	10	13
Qarshi shahar 15-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	31	4	10	17
Nazorat guruhi	30	6	11	13

6-jadval

“Blank Page Syndrome”ni yengish va “Mind Mapping” mashq turi bo‘yicha yakuniy test natijalari

Samarqand shahri 24-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	32	10	20	2
Nazorat guruhi	30	5	15	10
Samarqand shahri 36-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	28	9	16	3
Nazorat guruhi	29	6	10	13
Jizzax shahri 6-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	30	12	15	3
Nazorat guruhi	31	5	13	13
Jizzax shahri 22-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	25	11	13	1
Nazorat guruhi	26	5	8	13
Qarshi shahar 1-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	29	11	16	2
Nazorat guruhi	28	4	8	16
Qarshi shahar 15-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	31	13	15	3
Nazorat guruhi	30	7	9	14

“Thesis Statement” yaratish mashq turi bo‘yicha tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarni ko‘rishingiz mumkin (7-8-jadvallarga qarang):

7-jadval

“Thesis Statement” yaratish siri mashq turi bo‘yicha dastlabki test natijalari

Samarqand shahri 24-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	32	4	11	17
Nazorat guruhi	30	5	15	10
Samarqand shahri 36-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	28	3	10	15
Nazorat guruhi	29	5	9	15
Jizzax shahri 6-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	30	6	10	14
Nazorat guruhi	31	4	11	16
Jizzax shahri 22-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	25	3	10	12
Nazorat guruhi	26	4	9	13
Qarshi shahar 1-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	29	5	10	14
Nazorat guruhi	28	4	12	12
Qarshi shahar 15-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	31	3	10	18
Nazorat guruhi	30	4	11	15

8-jadval

“Thesis Statement” yaratish siri mashq turi bo‘yicha yakuniy test natijalari

Samarqand shahri 24-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	32	9	21	2
Nazorat guruhi	30	6	10	14
Samarqand shahri 36-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	28	8	15	5
Nazorat guruhi	29	4	10	15
Jizzax shahri 6-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	30	10	16	4
Nazorat guruhi	31	4	8	19

Jizzax shahri 22-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	25	10	13	2
Nazorat guruhi	26	4	8	14
Qarshi shahar 1-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	29	10	15	4
Nazorat guruhi	28	3	10	15
Qarshi shahar 15-maktab				
Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba Guruhi	31	8	15	8
Nazorat guruhi	30	4	8	18

Tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha qiymatlari, samaradorlik ko‘rsatkichlari, tanlanma dispersiya va variatsiya ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat (9-10-jadvallarga qarang):

9-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha qiymatlari, samaradorlik ko‘rsatkichlari, tanlanma dispersiya va variatsiya ko‘rsatkichi

Mezonlar	Hududlar	Guruhlar	O‘rtacha qiymat	Samaradorlik	Dispersiya	Variatsiya ko‘rsatkichi
Yozma nutq kompetensiyasi	Samarqand	Tajriba	3,98	1,15	0,62	15,6%
		Nazorat	3,47		0,65	18,8%
	Qarshi	Tajriba	3,98	1,15	0,63	15,9%
		Nazorat	3,47		0,68	19,7%
	Jizzax	Tajriba	4,01	1,14	0,63	15,6%
		Nazorat	3,51		0,67	19,1%
	Jami	Tajriba	3,99	1,15	0,62	15,6%
		Nazorat	3,49		0,67	19,1%
Grammatik kompetensiya	Samarqand	Tajriba	4,03	1,16	0,61	15,1%
		Nazorat	3,49		0,65	18,8%
	Qarshi	Tajriba	4,05	1,15	0,66	16,3%
		Nazorat	3,53		0,68	19,4%
	Jizzax	Tajriba	4,04	1,15	0,62	15,4%
		Nazorat	3,53		0,69	19,6%
	Jami	Tajriba	4,04	1,15	0,63	15,5%
		Nazorat	3,51		0,67	19,2%
Leksik kompetensiya	Samarqand	Tajriba	4,08	1,14	0,59	14,5%
		Nazorat	3,57		0,65	18,2%
	Qarshi	Tajriba	4,07	1,15	0,59	14,5%
		Nazorat	3,54		0,68	19,3%
	Jizzax	Tajriba	4,00	1,14	0,61	15,3%
		Nazorat	3,50		0,67	19,2%
	Jami	Tajriba	4,05	1,14	0,60	14,7%
		Nazorat	3,54		0,66	18,8%

10-jadval

Tajriba va nazorat guruhlari uchun Styudent t-mezonining empirik va kritik qiymatlari, ishonch oraliqlari hamda gipoteza xulosalari

Mezonlar	Hududlar	Guruhlar	Styudent kriteriyasi	Kritik qiymat	Ishonch oralig‘i		Xulosa
Yozma nutq kompetensiyasi	Samarqand	Tajriba	3,75	1,96	3,84	4,13	H1
		Nazorat			3,32	3,62	
	Qarshi	Tajriba	3,36	1,96	3,82	4,15	H1
		Nazorat			3,30	3,65	
	Jizzax	Tajriba	3,70	1,96	3,87	4,16	H1
		Nazorat			3,36	3,67	
	Jami	Tajriba	6,27	1,96	3,91	4,08	H1
		Nazorat			3,39	3,58	
Grammatik kompetensiya	Samarqand	Tajriba	4,00	1,96	3,88	4,18	H1
		Nazorat			3,33	3,64	
	Qarshi	Tajriba	3,44	1,96	3,88	4,22	H1
		Nazorat			3,35	3,70	
	Jizzax	Tajriba	3,79	1,96	3,90	4,19	H1
		Nazorat			3,37	3,69	
	Jami	Tajriba	6,50	1,96	3,95	4,13	H1
		Nazorat			3,42	3,61	
Leksik kompetensiya	Samarqand	Tajriba	3,74	1,96	3,93	4,22	H1
		Nazorat			3,42	3,72	
	Qarshi	Tajriba	3,53	1,96	3,92	4,22	H1
		Nazorat			3,37	3,72	
	Jizzax	Tajriba	3,72	1,96	3,86	4,14	H1
		Nazorat			3,34	3,66	
	Jami	Tajriba	6,35	1,96	3,96	4,13	H1
		Nazorat			3,45	3,63	

O‘quvchilarning yozuv kompetensiyasini takomillashtirish tajriba-sinov dasturi asosida olib borilgan natijalarga ko‘ra tajriba va nazorat guruhlarining test bo‘yicha olingan samaradorligi 1,15 barobar 15%ga, mashqlar bo‘yicha natijalariga ko‘ra 1,16 barobar 16%ga va yozma topshiriqlar natijalariga ko‘ra 1,15 barobar 15%ga yuqori ekanligi aniqlanib, umumiy holda ijobiy samaradorligi 1,15 barobar 15%ga va umumiy hisobda 15,3%ga yuqori ekanligi statistik usullar orqali isbotlandi. Xulosa qilib aytganda, olib borilgan empirik tadqiqotlar natijasida yuqori sinf o‘quvchilarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirish uchun taklif etilgan mashqlar tizimining samaradorligi isbotlandi.

XULOSA

Yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini pedagogik diagnostika metodikasi orqali rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pedagogik diagnostikaga asoslangan yondashuv yuqori sinf oʻquvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda diagnostik-axborotli koʻrsatma paradigmasi doirasida samarali metodik mexanizm sifatida asoslandi. Ushbu yondashuv oʻquvchilarning yozma ishlaridagi xatolarni oddiy kamchilik sifatida emas, balki rivojlanish indikatorlari sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Natijada oʻquvchilarning individual ehtiyojlari, oʻzlashtirish darajasi va yozuv strategiyalari aniqlanib, oʻqitish jarayoni maqsadli va tizimli ravishda tashkil etiladi. Bu esa yozma nutqni rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslangan holda boshqarish imkonini yaratadi.

2. Tadqiqot natijalari pedagogik diagnostika asosida tashkil etilgan yozma faoliyat yozish samaradorligi koʻrsatkichlari, ya'ni grammatik aniqlik, leksik murakkablik va diskursiv izchillik kabi koʻrsatkichlarni kompleks rivojlantirishga xizmat qilishini koʻrsatdi. Diagnostik monitoring orqali oʻquvchilarning yozma ishlaridagi oʻsish dinamikasi muntazam kuzatilib, aniqlangan muammolar asosida mos topshiriqlar ishlab chiqiladi. Bu esa yozma nutqni rivojlantirishda tizimlilik va izchillikni ta'minlaydi.

3. Diagnostik yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik model adaptiv ta'lim konsepsiyasiga muvofiq oʻquvchilarning individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Har bir oʻquvchining bilim darajasi, yozuvdagi kamchiliklari va oʻrganish tezligi hisobga olinib, differensial topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Bu esa ta'lim jarayonining individuallashtirilishini ta'minlab, oʻquvchilarning maksimal rivojlanishiga erishishga xizmat qiladi.

4. Yozma nutqni baholashda qoʻllanilgan rubrikaga asoslangan baholash va teskari aloqaga asoslangan oʻqitish mexanizmlari baholash jarayonining shaffofligi va obyektivligini oshirishga xizmat qiladi. Oʻquvchilar aniq mezonlar asosida baholanishi natijasida oʻz natijalarini tahlil qilish va kamchiliklarini tushunish imkoniyatiga ega boʻladilar. Shu bilan birga, muntazam teskari aloqa oʻquvchilarning yozuv jarayonini takomillashtirishga yoʻnaltiradi.

5. Pedagogik diagnostika jarayonining integratsiyasi oʻquvchilarda metakognitiv xabardorlik va oʻz-oʻzini baholash koʻnikmalarini rivojlantiradi. Oʻquvchilar yozuv jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va tahrirlash bosqichlarini ongli ravishda boshqarishni oʻrganadilar. Bu esa ularning mustaqil oʻrganish qobiliyatini kuchaytirib, uzoq muddatli ta'lim natijalarini yaxshilaydi.

6. Diagnostik asosda ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi oʻquvchilarning tanqidiy fikrlash va tahliliy mulohaza yuritish koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar oʻquvchilardan faqat matn yozishni emas, balki fikrni asoslash, dalillash va tahlil qilishni talab qiladi. Natijada oʻquvchilarning yozma nutqi mazmunan boy, mantiqan izchil va dalillangan shaklga ega boʻladi.

7. Pedagogik diagnostika metodikasining ta'lim jarayoniga integratsiyasi oʻqituvchilarning baholash savodxonligi va oʻquv qarorlarini qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Oʻqituvchilar oʻquvchilarning natijalarini tahlil qilish asosida oʻqitish strategiyalarini moslashtiradi va samarali qarorlar qabul qiladi. Bu esa ta'lim jarayonini ma'lumotlarga asoslangan holda boshqarish imkonini beradi.

8. Ishlab chiqilgan metodik model dalillarga asoslangan yozuv ta'limi konsepsiyasiga mos ravishda yuqori sinflarda yozma nutq kompetensiyasini

kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu model o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish, yozma nutqni real hayotiy vaziyatlarga moslashtirish va ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar global kommunikativ muhitda samarali ishtirok eta oladigan darajaga yetadi.

AMALIY TAKLIF VA TAVSIYALAR

Yuqori sinf o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini pedagogik diagnostika metodikasi orqali rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O‘qituvchilarga yozma nutqni rivojlantirishda pedagogik diagnostikani faqat yakuniy baholash vositasi sifatida emas, balki uzluksiz monitoring mexanizmi sifatida qo‘llash tavsiya etiladi. Har bir yozma topshiriqdan oldin, davomida va undan keyin diagnostik tahlil o‘tkazish orqali o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash mumkin. O‘quvchilarga esa o‘z yozma ishlarini baholash mezonlari asosida mustaqil tahlil qilish, xatolarini aniqlash va tuzatish ko‘nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi. Bu jarayon yozuvni ongli boshqarish va natijaga yo‘naltirilgan o‘rganishni ta’minlaydi.

2. O‘qituvchilarga diagnostik natijalarga asoslanib o‘quvchilarni bilim darajasi va ehtiyojlariga ko‘ra guruhlarga ajratish hamda ularga mos topshiriqlar tizimini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Kuchli o‘quvchilar uchun murakkabroq, tahliliy yozuv topshiriqlari, sust o‘zlashtiruvchilar uchun esa qo‘llab-quvvatlovchi va bosqichma-bosqich yo‘naltirilgan mashqlar berilishi lozim. O‘quvchilar esa o‘z darajasiga mos individual o‘quv strategiyalarini qo‘llab, yozuv ko‘nikmalarini asta-sekin rivojlantirishlari kerak. Bu yondashuv ta’lim samaradorligini sezilarli oshiradi.

3. O‘qituvchilarga o‘quvchilarda yozuv jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va tahlil etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlarni keng qo‘llash tavsiya etiladi. Masalan, yozishdan oldin reja tuzish, yozish jarayonida o‘zini nazorat qilish va yakunda o‘z ishini baholash kabi bosqichlarni tizimli joriy etish muhimdir. O‘quvchilarga esa “self-assessment” va “peer-review” usullaridan foydalanish orqali o‘z yozuv faoliyatini tanqidiy baholash tavsiya etiladi. Bu ularning mustaqil o‘rganish kompetensiyasini rivojlantiradi.

4. O‘qituvchilarga yozma nutqni baholashda aniq mezonlarga asoslangan rubrikalar, elektron platformalar va raqamli tahlil vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu baholash jarayonining shaffofligi va obyektivligini ta’minlaydi. O‘quvchilar esa raqamli vositalar yordamida o‘z yozma ishlarini tahrirlash, xatolarni aniqlash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada yozma nutq ustida ishlash jarayoni yanada interfaol va samarali bo‘ladi.

5. O‘qituvchilarga yozma nutqni rivojlantirishda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan, muammoli va kommunikativ topshiriqlarni qo‘llash tavsiya etiladi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilardan fikrni asoslash, dalillash va mantiqiy bayon qilishni talab qiladi. O‘quvchilar esa turli janr va formatlarda (esse, xat, hisobot, blog post) yozish orqali o‘z yozuv ko‘nikmalarini boyitishlari kerak. Bu yondashuv ularning yozma nutqini real kommunikativ ehtiyojlarga mos ravishda rivojlantiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

РУСТАМОВ АЛИШЕР АБДУХАКИМОВИЧ

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ МЕТОДИКИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ

13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ПЕДАГОГИЧЕСКИМ наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2024.1.PhD/Ped7138.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Рустамова Адаш Эшанкуловна** доктор педагогических наук (DSc), доцент
Официальные оппоненты:	**Ахмедова Лайлохон Толибжоновна** доктор педагогических наук, профессор
	Давронова Фотима Пирназаровна доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент
Ведущая организация:	**Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «22» октября 2026 года в 9:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 64294). Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «_____» октября 2026 года.
(Протокол реестра рассылки за № 10 от «_____» октября 2026 года)

У. У. Жуманазаров
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук (DSc), профессор

С.И. Аноркулов
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

А.Я. Нурмуратов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой практике повышение грамотности письменной речи учащихся общеобразовательных школ, развитие у них навыков самостоятельного, логичного и стилистически обоснованного выражения мыслей, а также объективное измерение образовательных результатов признаются одним из приоритетных направлений педагогических исследований. Однако недостаточная проработанность механизмов подбора диагностических заданий в соответствии с возрастными особенностями, уровнем речевой подготовленности и учебными потребностями учащихся, их интеграции в цели и содержание урока, разработки на основе результатов диагностики системы дифференцированных упражнений и заданий, а также оценки их образовательной эффективности отрицательно сказывается на результативности развития письменной речи. В связи с этим разработка и внедрение в практику дидактической модели, методического обеспечения и диагностико-оценочных механизмов развития навыков письменной речи старшеклассников посредством методики педагогической диагностики является актуальной практической задачей.

В последние годы в мировой научной практике проводятся масштабные научные исследования, направленные на совершенствование использования педагогической диагностики при развитии письменной речи в системе общего среднего образования, а также на формирование речевой компетенции на основе формирующего оценивания, учебной аналитики, когнитивной психолингвистики и цифровых диагностических средств. К приоритетным научным направлениям в данной области относятся развитие содержательного, логико-композиционного, языкового и стилистического компонентов письменной речи на основе результатов диагностики, формирование навыков критического мышления и создания текста, дифференциация диагностических заданий, применение технологий адаптивного обучения, анализ письменных работ с помощью искусственного интеллекта, а также мониторинг динамики речевого развития учащихся. В перспективе одним из актуальных научных направлений является совершенствование методики педагогической диагностики на основе цифровых платформ оценивания, систем автоматизированного анализа текста, генеративного искусственного интеллекта и личностно ориентированных средств адаптивного обучения, разработка систем поэтапного оценивания компетенции письменной речи, а также научное обоснование их дидактической эффективности.

В Узбекистане осуществляются последовательные реформы по модернизации системы общего среднего образования на основе международных стандартов, повышению функциональной грамотности учащихся и широкому внедрению современных педагогических и цифровых технологий в образовательный процесс. «Наши дети должны быть

образованнее, сильнее, мудрее и, конечно же, счастливее нас»[1]. В соответствии с этим актуальной научно-практической задачей является разработка порядка использования методики педагогической диагностики в соответствии с дидактическими целями при развитии письменной речи старшеклассников в общеобразовательных школах, развитие речевой и коммуникативной компетенций учащихся на основе результатов диагностики, активизация их учебной деятельности, а также совершенствование диагностической системы оценивания развития навыков письменной речи и её интеграция в образовательную практику.

Настоящее диссертационное исследование в определённой мере служит решению задач, определённых в указах Президента Республики Узбекистан от 2 марта 2020 года № УП-5953 «О Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах в «Год развития науки, просвещения и цифровой экономики»», от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выводу на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № 312 «О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков», от 19 января 2022 года № 34 «О дополнительных мерах по совершенствованию изучения иностранных языков», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В нашей стране научные исследования в области методики преподавания иностранных языков проводили такие учёные, как Ж.Ж.Жалолов, Г.Х.Бакиева, Л.Т.Ахмедова, Д.У.Хошимова, И.М.Тухтасинов, У.У.Жуманазаров, Ш.З.Тайланова, А.Э.Рустамова, А.Я.Нурмуратов, Н.В.Петросян, Л.Т.Абдуллаева, М.У.Буранова, Ф.П.Давронова, М.Э.Пулатова, Ш.Ш.Рустамова, А.Б.Мусоева, Н.Н.Норматова, У.У.Сатторов, Л.Ф.Холикова[2].

[1] Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

[2] Бакиева Г., Махкамова Г., Кулдошев А. English 3. – Ташкент, 2007.; Jalolov J.J., Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Fan va

Вопросы обучения письменной речи и формирования компетенции письма на иностранном языке рассмотрены в научных исследованиях таких отечественных и зарубежных учёных, как Л.Р.Ахметова, Ф.Ш.Алимов, Н.У.Мустафаева, У.К.Ходжаниязова, Л.В.Каплич, С.Н.Мусульбес, О.В.Кудряшова, А.С.Кобышева, А.Н.Гаврилова, Дж.Хармер, А.Мейерс, Р.М.Манчон, П.К.Мацуда, Ч.Полио, П.Киррхофф, К.Хайленд[3].

Теоретико-методологические основы педагогической диагностики, оценивания образовательных результатов, диагностического мониторинга и формирующего оценивания освещены в научных исследованиях таких

